Xalq qabulxonalari fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari bekami koʻst amalga oshirilishi uchun sharoit yaratib, murojaatlarni toʻliq, xolis koʻrib chiqish va hal etish imkonini bermoqda.

Xalq bilan muloqot mexanizmlarining takomillashuvi



Alohida qayd etish joizki, xalq qabulxonalari murojaatchilar kelishini kutib o‘tirmay uyma-uy yurib muammolarni aniqlash tajribalaridan keng foydalanmoqda. Shu asosda ayrim muammolar joyida hal etilmoqda.

Xalq qabulxonasi noyob mexanizm ekani, kishilar o‘z muammolarining yechimini izlab poytaxtga qatnashiga hojat yo‘qligi, ularning o‘z uyiga yaqin davlat muassasalariga murojaat qilishi uchun eng oson va yengil imkoniyatlar yaratilganini ko‘plab xorijlik kuzatuvchilar e’tirof etishdi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojlanib borishi, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish natijalari fuqarolar manfaatlarini himoyalashning kuchayishiga olib kelmoqda

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 35-moddasida har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekani, 44-moddasida har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi belgilanganiga qaramay Konstitutsiyaviy sud fuqarolar murojaatlarini ko‘rmas edi. 2021-yil 27-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi konstitutsiyaviy qonun bu masalani ijobiy hal qildi. Mazkur qonunga ko‘ra fuqarolarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishlari mumkinligi belgilandi. Bu **birinchidan**, Konstitutsiyaning ustuvorligini ta’minladi. **Ikkinchidan**, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalashni kuchaytirdi. **Uchinchidan**, Konstitutsiyaviy sud fuqarolar murojaatlarini ko‘rish-ko‘rmasligi haqidagi ilmiy bahslarga chek qo‘ydi.

Xalq bilan muloqot usullari chegara bilmaydigan ijtimoiy hodisa. Uning yangi shakllari, ko‘rinishlari namoyon bo‘lib boraveradi. Chunki bunga doimiy ehtiyoj bor. Bundan davlat ham, aholi ham manfaatdor bo‘ladi. Muloqotning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi davlatdagi eng muhim masala – xalqning davlatga ishonchini vujudga keltiradi.



Prezidentning 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan hokim yordamchisi lavozimi joriy etildi.

Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish hokim yordamchisi lavozimini ta’sis etishdan asosiy maqsad qilib belgilangan.

Aholining davlat organlariga murojaatlarining tahlili esa murojaatlarning katta qismi yuqorida qayd etilgan masalalarga taalluqli ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur lavozimning tashkil etilishi birinchidan murojaatlar bilan ishlashning yangi mexanizmini yaratgan bo‘lsa, ikkinchidan, hokim yordamchilari aholi va davlat organlarini bog‘lovchi yangi va samarali vosita sifatida yuzaga keldi.

Akmaljon ISABAYEV,
Yakkasaroy tumani Xalq qabulxonasi mudiri,
Prezident huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi